



XALQ DEPUTATLARI SURXONDARYO VILOYATI ANGOR TUMAN KENGASHINING QARORI

190200, Angor q., Al-Hakim at-Termiziy ko'chasi 58-uy, tel.: 0(376) 31-22-012, faks: 0(376) 31-22-012

2023 - yil 21 - sentabr

VI-65-192-8-109-K/23

Angor tuman hokimligi

Angor tumani “Mahalla” xayriya jamoat fondining “Saxovat va ko‘mak” jamg‘armasidan mablag‘ ajratish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 22-apreldagi 213-F-sonli farmoyishi bilan tasdiqlangan “Saxovat va ko‘mak” jamg‘armasi to‘g‘risidagi Nizomning 7-bandida jamg‘arma mablag‘larini tasarruf etish tuman miqyosida xalq deputatlari tuman Kengashlari tomonidan amalga oshirilishi belgilangan. Tumanda ehtiyojmand va ijtimoiy himoyaga muhtoj bo‘lgan aholi qatlami, shuningdek ko‘p farzandli oilalar, nogironligi bo‘lgan shaxslar va yolg‘iz qariyalar hamda o‘z daromadini yo‘qotgan vaqtincha ishsiz bo‘lgan shaxslarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash maqsadida xalq deputatlari Angor tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 22-apreldagi 213-F-sonli farmoyishi bilan tasdiqlangan “Saxovat va ko‘mak” jamg‘armasi to‘g‘risida”gi Nizomi va tuman hokimining o‘rinbosari B.Xakimovning 2023-yil 20-iyuldagagi № 06-29/24-sonli xati ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Angor tumanida dasturchi va mutaxassislar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasida yetuk kadrlar yetishtirish maqsadida hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 12-avgustdagи “Zamonaviy bilim va kasb-hunar egallash imkoniyatlarini kengaytirish bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-350-sonli Qarori ijrosi yuzasidan “TENX CODERS” MChJ tomonidan tumandagi 14 yoshdan 30 yoshgacha bo‘lgan yoshlar o‘rtasida o‘tkazilgan imtihonlarda yuqori natijalarga erishgan 30 nafar yoshlar ro‘yxati ma’lumot uchun qabul qilinsin.

3. Tumandagi 14 yoshdan 30 yoshgacha bo‘lgan, kam ta’minlangan ehtiyojmand oilalarning farzandlari hamda iqtidorga ega bo‘lgan yoshlarni qo‘llab-quvvatlash maqsadida “TENX CODERS” MChJ tomonidan axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasidagi o‘quv kurslariga qabul qilingan iqtidorli yoshlarning iyun oyi uchun o‘quv kurs to‘lovlariga jami 27 000 000 (yigirma yetti million) so‘m mablag‘

“Saxovat va ko‘mak” jamg‘armasidan “TENX CODERS” MChJga (INN:310126066 H/R:20208000305614432001 bank: Termiz shahar ATB "Aloqabank" MFO: 00401) o‘tkazib berilsin.

4. Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari O.Muratov va “Mahalla” xayriya jamoat fondi tuman bo‘linmasi bosh hisobchisi U.Isayevlar o‘tkaziladigan pul mablag‘larining maqsadli va samarali sarflanishini nazorat qilsin hamda amalga oshirilgan ishlar yuzasidan xalq deputatlari tuman Kengashiga yozma ma’lumot kiritib borsin.

5. ATB Agrobank Angor filiali boshlig‘iga ajratilgan mablag‘larning belgilangan tartibda to‘lovlarini amalga oshirishi tavsiya etilsin.

6. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish Xalq deputatlari Angor tuman Kengashining Mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, turizm, investitsiyalar va tadbirdorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (R.Kabulova), tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (O.Muratov) zimmalariga yuklatilsin.

7. Ushbu qaror qabul qilingan kundan kuchga kiradi.

Kengash raisi



Q.Mardonov